TEMURIYLAR VA USMONIYLAR O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK MUNOSABATLAR

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ ТЕМУРИДАМИ И ОСМАНАМИ

DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN THE TEMURIDS AND THE OTTOMANS

TURDIMIRZAYEV Elyorbek
Institute of History Academy of Sciences of Uzbekistan, Junior Research Fellow
G-mail: turdimirzayevelyorbek@gamil.com

DOI: 10.47980/IIAU/2025/3/4

Annotatsiya. *Uch ming yillik o‘zbek davlatchiligi tarixida Temuriylar sulolasi madaniy, iqtisodiy, siyosiy va harbiy jihatdan eng yuksak bosqichlardan biri sifatida boshqa sulolalardan farqlanadi. Bu esa nafaqat ichki siyosat va madaniyat taraqqiyoti, balki tashqi siyosat borasida ham katta muvaffaqiyatlar bilan xarakterlanadi.*

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Amir Temur (1336–1405) va uning vorisi Shohruh Mirzo (1377–1447) hukmronligi davrida Temuriylar sulolasi Usmoniylar sulolasi bilan olib borilgan diplomatik munosabatlarda siyosiy va geosiyosiy jihatdan ancha ustun mavqeda bo‘lgan. Bu ustunlik ikki sulola o‘rtasidagi strategik aloqalarda, harbiy-diplomatik munosabatlarda hamda mintaqaviy kuchlar muvozanatini shakllantirish jarayonida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Mazkur maqolada arab, fors, usmonli va ovropa manbalariga suyangan holda Temuriylar va Usmoniylar sulolalari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar qay yo‘sinda olib borilganligi va qanday natijalar bo‘lganligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Sulton Boyazid, Shohrux Mirzo, Sulton Mehmed, Sulton Murod, Temuriylar, Usmoniylar, Mamluklar, elchilik.*

Аннотация: *В трёхтысячелетней истории узбекской государственности династия Темуридов выделяется как один из наиболее высоких этапов культурного, экономического, политического и военного развития. Это отличие проявляется не только во внутренней политике и расцвете культуры, но и в значительных достижениях во внешней политике.*

Согласно историческим источникам, во времена правления Амира Темура (1336 – 1405) и его преемника Шахруха Мирзы (1377 – 1447) династия Темуридов занимала политически и геополитически более сильные позиции в дипломатических отношениях с династией Османов. Это превосходство ярко проявлялось в стратегических связях между двумя династиями, в военно-дипломатических отношениях, а также в процессе формирования регионального баланса сил.

В данной статье, опираясь на арабские, персидские, османские и европейские источники, анализируются характер, направления и результаты дипломатических отношений между династиями Темуридов и Османов.

Ключевые слова: *Амир Темур, султан Баязид, Шахрух Мирза, султан Мехмед, султан Мурат, Тимуриды, Османы, Мамлюки, дипломатия, посольство.*

Abstract. *Throughout the three-millennia-long history of Uzbek statehood, the Timurid dynasty represents one of the most distinguished periods of cultural, economic, political, and military development. This era is remarkable not only for its internal governance and cultural advancement but also for its substantial accomplishments in the sphere of foreign policy.*

According to historical sources, during the reigns of Amir Temur (1336–1405) and his successor Shahrukh Mirza (1377–1447), the Timurid dynasty held a markedly superior political and geopolitical position in its diplomatic relations with the Ottoman dynasty. This predominance was clearly manifested in the strategic interactions between the two dynasties, in their military-diplomatic relations, and in the process of shaping the regional balance of power.

This article, drawing upon Arabic, Persian, Ottoman, and European sources, analyzes the nature of the diplomatic relations conducted between the Timurid and Ottoman dynasties, as well as the outcomes that resulted from these interactions.

Key words *Amir Temur, Sultan Bayezid, Shahrukh Mirza, Sultan Mehmed, Sultan Murad, Timurids, Ottomans, Mamluks, diplomatic missions.*

KIRISH

Amir Temurning Onado‘li mintaqasi bilan bo‘lgan ilk munosabati 1387-1388-yillar orasiga to‘g‘ri keladi. Amir Temur 1387-yil Qorabog‘ga keladi. Bu vaqtda sharqiy Onado‘li Qoraqo‘yinli Turkmanlar nazorati ostida edi. Sharofiddin Ali Yazdiyning ifodasiga ko‘ra Turkmanlar fitna-fasodga berilib, musulmonlarni hajga ketayotgan karvonlarini talab, haj yo‘lini to‘sib qo‘yishgan edi (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:158; Ahat Andican, 2019:218). Shundan kelib chiqib Amir Temur Naxichevan yo‘lidan Turkmanlarni ustiga harkatlandi. Boyazid qal’asini (Qal’ayi Oydin) egallab Avniq qal’asiga keladi. Undan so‘ng esa Erzurumga yo‘l oladi. Bir kun ichida bu shahar qal’asi ham egallanadi. So‘ng Amir Temur Arzinjonga elchi yuboradi va Arzinjon hokimi Tahartun unga o‘z itoatini bildiradi (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:158). Arzinjon hokimi Tahartun Amir Temurning Onado‘lidagi keyingi faoliyatlarida juda muhim shaxsiyatga aylanadi. Chunki, Amir Temur bu shaxsni o‘z davlati hududining g‘arbiy chegarasidagi hokimi sifatida ko‘radi. Amir Temurning Onado‘lidagi beyliklar bilan bo‘lgan ikkinchi diplomatik munosabati 1393-94-yilga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda Amir Temur

Sivas va Qaysariya hokimi Qozi Burxoniddin va Arzinjon hokimi Tahartunga elchilar yuborib o‘ziga itoatda bo‘lishlarini talab qiladi. Arzinjon hokimi bu talabni xushko‘ngillik bilan qabul qilsada, Qozi Burxoniddin bu talabga rad javobini beradi (Aziz ibn Erdeşir Esterabadî, 1990:411-412). Amir Temurning Onado‘lidagi keyingi faoliyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri Usmoniylar bilan olib boriladi.

USLUBLAR

Tadqiqotni yoritish jarayonida va uning metodologik asosi hamda konsepsiyasini ishlab chiqishda zamonaviy tarixiy tadqiqot usullari asos qilib olindi. Jumladan, tarixiylik, tadrijiylik, haqqoniylik, xolislik va ilmiylik tamoyillari asosida yondashildi. Turli manbalar, ma’lumotlarni muomalaga kiritish jarayonida ular ham qiyosiy tahlil etish asosida umumlashtirildi.

ASOSIY QISM

Ma’lumki, Usmoniylar va Temuriylar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1395-yil bahorida Amir Temurning Sulton Boyazidga yo‘llagan maktubi bilan boshlangan. Amir Temur va To‘xtamish o‘rtasidagi Terek urushi arafasida jo‘natilgan bu maktub o‘sha davrda mintaqada hukm surgan muvozanatni va Amir Temurning Usmonli imperiyasiga bo‘lgan qarashlarini aks ettirganligi jihatidan juda muhimdir. Maktubda Amir Temur g‘arbdagi nasroniylarga qarshi olib borayotgan sulton Yildirim Boyazidni islomning himoyachisi deb atadi. Shundan so‘ng, Amir Temur o‘zi ham sharqda g‘ayridinlarga qarshi kurashganligini aytadi. Bundan tashqari Amir Temur maktubda Chingizxoning “dunyo hukumdorligi” g‘oyasining o‘sha vaqtdagi vakili Mahmudxon va uning nomidan o‘zini bu g‘oyaning egasi sifatida ko‘rsatgan. Amir Temur Elxoniylar davlati parchalanganidan keyin Eron va boshqa hududlar Chig‘atoy merosxo‘rlariga ya’ni, Mahmudxonga qolganligini, Mahmudxon unga Eron va Iroq mintaqasida tartibni saqlash vazifasini berganligini aytib, Hindiston chegaralaridan Kavkazgacha, Hurmuz bo‘g‘ozidan Kaspiy dengizigacha bo‘lgan hududlarni qo‘lga kiritganini bildiradi.

Maktubining ikkinchi qismida, Amir Temur o‘sha paytda Shirvonda Samur daryosi bo‘yida ekanligi, To‘xtamish bilan tinchlik muzokaralari olib borishdan umidvor ekanligi, agar muzokaralar yaxshilik bilan yakunlanmasa, unga qarshi yurish boshlashini bildirgan. Amir Temur To‘xtamish Franklar bilan hamkorlikda ekanini aytadi va shuning uchun unga qarshi urushni g‘azot deb belgilaydi. Shu nuqtada Amir Temur Kavkazdan, Yildirim Boyazid Bolqondan g‘azod qilsa, g‘ayridinlar parchalanib ketishini aytib, Usmonli sultoniga harbiy hamkorlik taklifini bildirgan edi.

Maktubning keyingi qismida Amir Temur bir yil oldin amalga oshirgan Bag‘dod yurishi haqida ma’lumot berib, “kelib chiqishi noma’lum cherkes bola” deb ta’riflagan Barquq hukumdoriga xiyonat qilib hokimiyatni egallab olganligi, musulmonlar xalifasini zindonband qilganligi va elchiga o‘lim yo‘q an’anasiga amal qilmay o‘zi tomonidan yuborilgan elchini o‘ldirganligini aytadi. To‘xtamishni masalasini hal qilgandan so‘ng Barquq va uning ittifoqchisi Sivas hokimi Qozi Burxoniddinga kerakli darsni berishini bildiradi. Amir Temurning ushbu maktubi Sulaymoniyya kutubxonasidagi “Munshaot-i Sari Abdulloh Afandi” fondida 3333-raqam ostida saqlanadi (Ahat Andican, 219:224-225).

Shuni eslab o‘tishimiz lozimki, Amir Temur 1393-yil oxirida Sivas va Qaysariya hukumdori Qozi Burhoniddin Ahmadga maktub yuborib, o‘ziga tobe bo‘lishni, uning nomidan pul zarb qilib, xutbada uning nomini o‘qilishi, agar bu talablar bajarilmasa oqibati yaxshi bo‘lmasligini bildirgan (Ibn Arabshoh, 2019:171; Aziz ibn Erdeşir Esterabadî, 1990:412; Ibn Hajar, 1969:473: Yaşar Yücel, 1970:123; Cüneyt Kanat, 2022:50). Ammo Qozi Burhoniddin Amir Temurga qarshi o‘zi yakka kurasha olmasligini bilib, maktubning bir nusxasini Usmonli sultoni Boyazid Yildirimga yana bir nusxasini Misr mamluk sultoni Barquqqa yubordi (Ibn Hajar, 1969:473). Qozi Burhoniddin Sivas shahri Usmoniylar va mamluklar davlatiga kiradigan eshik ekanligini ta’kidlab, agar unga biror ziyon etsa, bu ikki davlatga ham ziyon etmasdan qolmasligini aytib ulardan yordam talabida bo‘lib elchi yuboradi va Amir Temurga qarshi kurashda ittifoqdosh bo‘lishni taklif qiladi (Aziz ibn Erdeşir Esterabadî, 1990:420-421; Ibn Arabshoh, 2019:172). Shu vaqtda mamluk sultoni Barquqqa Oltin O‘rda hukumdori To‘xtamishxon tarafidan ham elchilar maktub bilan kelishadi. Maktubda To‘xtamish Amir Temurga qarshi kurashda o‘zaro ittifoq qilish taklifini beradi (Taqiyuddin Maqriziy, 1997:356). Bu vaqtga kelib Usmonli sultoni Boyazid Yildirim ham Barquqqa elchi jo‘natib Amir Temurga qarshi ittifoq taklifini beradi (Ibn Hajar, 1969:471). Amir Temurga qarshi yolg‘iz kurasha olmasliklarini bilgan bu hukumdorlar o‘ziga xos to‘rtlik ittifoqini shakillantirishdi.

Shubhasiz, Amir Temur o‘sha vaqtdagi hukumdorlarning o‘ziga qarshi tuzgan bu ittiqfoqidan xabari bo‘lgan. Faqat u Boyazidga yozgan maktubida bu mavzuga teginmaydi. Balki, To‘xtamish, Qozi Burxoniddin va Barquqqa kerakli darsni berib qo‘yishini bildirib, Boyazidni bu ittifoqdan uzoq bo‘lishga undab ogohlantirish bergan bo‘lishi mumkin (Ahat Andican,

2019:226). Amir Temurning tahdidlariga doim pisandsiz qaragan Qozi Burhoniddin 1398-yil yozidagi jangda Oqqo‘ylilar sardori Qora Yuluk Usmon tarafidan o‘ldirildi (Ismail Aka, 2022:70-71). Buning natijasida Amir Temur uchun dushman ittifoqining yana jabhasi o‘yindan chiqdi. 1399-yil Misr mamluk sultoni Barquq ham olamdan o‘tdi va uning o‘rniga o‘g‘li Nosir Faraj o‘tirdi. Bundan Amir Temur juda sevindi (Ibn Shihna, 1997:297). Chunki, sulton Barquq Amir Temurning elchilarini qatl qilgan edi. Sulton Boyazid Yildirim esa sobiq ittifoqchilarining erlari Sivas va Malatiyani egallab oldi. Aslini olganda bu to‘rtlik ittifoqi ham Amir Temurga qarshi kurashish uchungina tuzilgan edi. Asl holatga qaraydigan bo‘lsak ularning ham ichlarida juda katta ziddiyat bor edi. Chunki Ibn Hajar Asqaloniy o‘z asarida Barquqning quyidagi gapini keltiradi: “Men Temurdan qo‘rqmayman chunki, hamma Temurga qarshi kurashda menga yordam beradi. Men Boyazid ibn Usmon sababli yuzaga keladigan muammolardan qo‘rqaman – der edi”. Asqaloniy yana Ibn Xaldun ham “Misr uchun Ibn Usmondan boshqasidan qo‘rqilmas” degan so‘zlarini eshitganligini aytadi (Ibn Hajar, 1969:492).

Qozi Burhoniddin 1398-yil iyul oyida Oqqo‘yunli Qarayuluk Usmonbey tomonidan o‘ldirilganidan so‘ng uning o‘rnini kichik o‘g‘li Zaynul Obidin egalladi, lekin Oqqo‘yunli rahbarining Sivasga bo‘lgan bosimi davom etgani uchun Qozi Burhoniddin davlatining amaldorlari Boyaziddan yordam so‘radi. Bu talab bilan mintaqaga kelgan shahzoda Sulaymon Chalabiy qo‘mondonligidagi Usmonli qo‘shinlari Qarayuluk Usmonbeyni mag‘lub etib, shaharni egallab oladi. Keyinchalik shaharga kelgan Yildirim Bayazid Zaynul Obidinni Dulqodiro‘g‘li Nasiruddinbeyga yuborib, Sivas, Tokat, Kaysari, Oksaray kabi viloyatlardan tashkil topgan Qozi Burhoniddin davlatining erlarini Usmonlilar imperiyasiga qo‘shib oldi (Ahat Andican, 2019:227). Tarixchi Astrabodiyning ma’lumotlariga qaraganda Boyazid Yildirimning avvaldan Qozi Burhoniddin davlatini mamluk davlati bilan o‘rtada bo‘lib olish maqsadi bo‘lgan. Lekin Amir Temurning bu mintaqaga kelishi ushbu kelishuvni yo‘qqa chiqargan (Aziz ibn Erdeşir Esterabadî, 1990:425). Bundan tashqari Boyazid Amir Temurga tobe bo‘lgan Arzinjon va Erzurum hokimi Tahartunga elchi yuborib o‘ziga tobe bo‘lishini va hokimlik qilayotgan joyining xirojini yuborishini talab qiladi (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:338; Nizomiddin Shomiy, 1996:284). Tahartun esa bu xabarni Amir Temurga etkazdi. Temur esa mavlono Shamsuddin qalami bilan Boyazidga tahdid bilan bir maktub yozadi. Maktubda Amir Temur butun dunyo mamlakatlari unga bo‘yin ekkanligi va bu mamlakat hukumdorlari o‘zining xizmatida ekanligini bildiradi. Boyazidni nasabini kemachi turkmanlarga borishini va haddidan buyuk ishlarga aralashmaslikni ta’kidlaydi. Bundan tashqari shu kungacha unga qarshi bir yurish qilmaganlini sababi, Boyazid Franklarga qarshi g‘azot harakatlarida bo‘lganligi, agar unga yurish qilsa g‘ayridinlar quvonib, musulmonlar g‘amga botgan bo‘lar edi deb aytadi (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:339; Nizomiddin Shomiy, 1996:284). Tarixchi Ja’fari Muhammad ozining “Katta tarix” deb nomlangan asarida Amir Temur Boyaziddan o‘ziga tobe bo‘lishlik, xutbada uning nomini qo‘shib, uning nomidan tanga zarb qilishni talab qilganligini aytadi (Ca’feri b. Muhammed el-Hüseynî, 2011:11). Amir Temurning maktubini Boyazidga etkazishganda u “qachondan beri u bilan yuzma-yuz kelishni xohlar edim. Endi qo‘shinim bilan uning ustiga yurish qilishga hech bir to‘siq qolmadi. Agar o‘zi bu tarafga kelmasa men Tabriz va Sultoniyaga boraman” (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:339; Nizomiddin Shomiy, 1996:285)deb aytadi.

Amir Temur bilan Boyazid Yildirimning o‘rtasini ochgan siyosiy sabablardan yana biri Onado‘li bekliklarining Amir Temurdan yordam so‘rashlaridir. Chunki, bu vaqtga kelib Boyazid Yildirim Onado‘lidagi barcha bekliklar erlarini egallab, u erda birlikni saqlagan edi. Usmoniylar tarixchisi Oshiqposhozoda “Tavorix-i Oli Usmon” asarida Amir Temurdan yordam so‘raganlar Arzinjon hokimi Tahartan, Germiyan bekligi, Oydin og‘li bekligi, Mentasha o‘g‘li bekligi va Isfandiyor o‘g‘li bekligi sardorlari ekanligini aytadi (Aşık Paşazade, 2003:139).

Amir Temur 1400-yil avgust oyida Sivasga etib keldi va uni o‘n sakkiz kun qamal qilgandan so‘ng uni egalladi (Şerefüddin Ali Yezdi, 2013:342; Nizomiddin Shomiy, 1996:285-286). Amir Temur tomonidan Sivas qal’asini olinishi Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi munosabatlarni muhim nuqtalaridan biri bo‘ldi. Chunki, Sivas Temur tarafidan birinchi marta Usmoniylar hokimiyati ostidagi hududni egallanishi bo‘ldi. Undan so‘ng Temur Malatiyani o‘z davlati tarkibiga qo‘shib qo‘ydi. Temur Sivas va Malatiyani egallash bilan Boyazidni ogohlantirib qo‘ymoqchi bo‘lganligini ko‘ramiz. Chunki, Sivas egallangandan so‘ng Boyazidga maktub yuborib Sivas voqeasidan xulosa olib sulh yo‘liga kirishlik, o‘zini esa Elxoniylar vorisi ekanligi va kichiklarni kattalarga bo‘yin egishi lozim ekanligini aytadi (Feridun Bey, 1583:126-127; Hayrunnisa Alan, 2007:68).

Boyazid Yildirim Sivasni olinish bilan vaziyat jiddiyligini tushunadi. Chunki, bu xabar unga etganda Kanstantinopol qamalini to‘xtatib, Onado‘li tomon o‘tadi. Boyazid Amir Temurni Onado‘li ichkarisi tomon yuradi deb o‘ylab, Qaysariya shahriga kelib uni kutishni boshlaydi. Faqat u bilan uchrashmagach Temurning

ittifoqchisi Tahartunni qo‘lida bo‘lgan Qamoh va Arzinjonni egallaydi. Tahartunni oilasini asir sifatida Bursaga yuboradi (Hayrunnisa Alan, 2007:69).

Amir Temur Sivas va Malatiyani olgandan so‘ng Halab, Hama, Baalbak Damashq va Bag‘dodni egallaydi. Faqat bu vaqtda Qoraqo‘yinli Qora Yusuf va Sulton Ahmad Jaloyir Boyazid huzuriga borib, uning himoyasiga kiradi (Ibn Tag‘riberdi XII, 1956:266; Şerefüddin Ali Yezdi, Zafernâme, 2013:243).

Qora Yusuf va Ahmad Jaloyir masalasi Amir Temur va Boyazid orasidagi diplomatik munosabatlarning eng muhim mavzularidan biri bo‘lgan. O‘z davlatida siyosiy barqarorlikni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan Temur, mamlakatning tashqi siyosatiga va iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish yo‘lida g‘ov bo‘layotganlarni bartaraf etishga qattiq kirishgan. Shu maqsadda Amir Temur Boyazidga yozgan maktublarida Qora Yusuf va Ahmad Jaloyirni yo‘l to‘suvchi qaroqchilar ekanligi, ularni dastidan musulmonlar aziyat chekayotganliklarini aytib, ularni himoya qilmaslikni talab qiladi. Temur yo ularni o‘ldirish, yoki bu ikkisini tutib o‘ziga yuborishni, yoki bo‘lmasam Usmoniylar hududidan chiqarib yuborishlikni talab qiladi (Nizomiddin Shomiy, 1996:323). Boyazid Amir Temurning bu talablarini rad etti. Shundan so‘ng Amir Temur Qorabog‘dan harakatga tushub, dastlab Erzurum so‘ng Arzinjonga keldi va Qamoh qal’asini egalladi. Bu orada Boyaziddan bir elchi keldi. Amir Temur elchiga Usmonli sultoni bilan haliyam sulh qilish niyati borligi, buning uchun Bursada saqlanayotgan Tahartun oilasini ozod qilish va Boyazid o‘z o‘g‘illaridan birini o‘zining huzuriga yuborishni shart qildi (Hayrunnisa Alan, 2007:71).

Yuqorida sanab o‘tgan omillar ikki buyuk hukumdor o‘rtasidagi to‘qnashuvni oldini olib bo‘lmaydigan holga keltirdi. Tomonlarni jang maydoniga etaklagan omillardan yana biri, balki, eng asosiy omili ikki hukumdorning hokimiyatni anglash masalasidir. Amir Temur o‘zini Chingizxondan so‘ng mamlakatlarni fitna-fasoddan qutqaruvchi boshqaruvchi sifatida ko‘rar edi. Amir Temur 1402-yil Anqara jangidan oldin haqiqatda Xitoydan tashqari Chingizxon va uning avlodlari hukumron bo‘lgan erlarni o‘z hokimiyati ostiga birlashtirgan edi. O‘g‘li Mironshohga Huloguxon hukumronlik qilgan erlar boshqaruvini bergan edi. Amir Temurning hokimiyat tushunchasi bo‘yicha, bir vaqtlar Onado‘li Saljuqiylari Elxoniylarga tobelikni qanday qabul qilgan bo‘lsalar, Onado‘li Saljuqiylarining vorisi bo‘lgan Usmoniylar endi shu holda Amir Temurga itoat qilishi lozim edi. Boshqa tarafdan qarasak Boyazid o‘zini “Rum sultoni” sifatida bilardi. Boyazid Yildirim an’analashgan tushunchani yo‘qotishga harakat qilar edi. Bu tushunchaga ko‘ra Katta Saljuqiylar davridan e’tiboran O‘rta va Sharqiy Onado‘lining Eronda tashkil topgan davlatlarga tobe bo‘lishidir. Boyazid Yildirim esa Rumeli va Onado‘lidan tashkil topgan yangi bir siyosiy birlik tashkil qilish uchun faoliyat olib bordi. U Onado‘lining siyosiy birligini ta’minlash yo‘lidagi faoliyatini qonuniylashtirish uchun Misrdagi Abbosiy xalifasidan Saljuqiy sultonlariga berilgan “Rum sultoni” unvonini berishni so‘radi. O‘sha davr mamluk tarixchisi Ibn Shihna Boyazid mamluk sultoni Barquqqa elchi yuborib, uning himoyasidagi xalifadan o‘ziga Rum sultoni unvonini berishni xohlaganligini qayd qilgan (Ibn Shihna, 1997:296).

Shu tariqa o‘zini jahongir va islom mamlakatlarini fasodchilardan tozalovchi shaxs bilgan Amir Temur bilan o‘zini Onado‘lida islom bayrog‘ini ko‘taruvchisi va Saljuqiylarning merosxo‘ri sifatida ko‘rgan Boyazid Yildirim to‘qnash keldilar. Qisqa qilib aytganda Amir Temur uchun Sulton Boyazid bilan yuzma-yuz kelishdan boshqa yo‘l qolmagan edi. Chunki dunyodagi eng qudratli ikki kuch bu vaqtga kelib, Samarqand va Kichik Osiyoda mujassamlashgandi. “Ikki qo‘chqorning boshi esa bir qozonda qaynamaydi”. Masala mohiyati ham shunda. Ana shu to‘qnashuvga kim sababchi bo‘ldiyu, nima bahona chiqdi, kim aybdoru, kim haq – bular endi mazkur masalaning tafsilotlaridir (Azamat Ziyo, 2001:229). 1402-yil 28-iyul kuni Anqara yaqinidagi Chubuq mavzesida sodir bo‘lgan ulkan to‘qnashuvda Boyazid Yildirim qaqshatqich mag‘lubiyatga uchraydi. Amir Temur Onado‘lida hukumronlikni o‘rnatdi.

Amir Temur vafotidan so‘ng Temuriylar va Usmoniylar munosabatlari

Amir Temurning vafotidan so‘ng Temuriy shahzodalar hokimiyat uchun 1405-1409-yillar davomida ayovsiz kurash olib bordilar. Taxt uchun olib borilgan bu kurashlarda Amir Temurning kenja farzandi Shohruh Mirzo g‘alaba qozonib, Temuriylar davlatining yakka va mutloq hukumdoriga aylandi. Bu vaqtda Boyazid Yildirimning vafotidan so‘ng Usmoniylar davlati hokimiyati uchun ham uning o‘g‘illari o‘rtasida 1402-1412-yillar davomida saltanat kurashi avj oldi. Bu davr Usmoniylar davlati tarixiga “Fitrat davri” nomi bilan kirdi. Saltanat uchun olib borilgan kurashlarda Boyazidning kencha o‘g‘li Mehmed Chalabiy g‘alaba qozondi va Usmoniylar davlatining mutloq hukumdoriga aylandi. Bu vaqtga kelib Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasida Qoraqo‘yinli va Oqqo‘yinli turkman qabilalari ham katta kuchga ega edi. Oqqo‘yinli turkmanlar tarixchisi Tihroniy Amir Temurning vafotidan so‘ng Qoraqo‘yinli va Oqqo‘yinli liderlari orasida ahdlashma bo‘lganligini ham qayd qilgan. Unga ko‘ra: Amir Qora Yusuf Amir Usmonga xabar yuborib, “biz ikkimiz turkmanmiz. Bundan so‘ng bir-birimizga hujum qilmaylik. Har

birimiz Rum va Chig‘atoy kabi dushmanlarizmiz bilan mashg‘ul bo‘laylik. Sening uchun eng to‘g‘ri ish Rumga hujum qilish, men uchun Chig‘atoyliklar bilan jang qilishdir” (Ebu Bekr-i Tihrani, 2011:50; Ahat Andican, 2019:559) deydi. Haqiqatdan ham turkmanlarni lideri Qora Yusuf 1408-yilgacha qisqa uch yil muddatda Temuriylar davlati tarkibidagi Ozarbajon va Iroqi Ajam mintaqalariga hokim bo‘ldi. U bilan bo‘lgan janglarda Mironshoh Mirzo halok bo‘ladi. Bu vaqtdan etiboran Shohruh Mirzo bilan Qoraqo‘yinlilar o‘rtasida kurash boshlanadi.

Shohruh Mirzo Temuriylar davlati ichidagi nizolarga barham bergandan so‘ng, e’tiborini g‘arb tomon buradi. Shohruh bir tarafdan davlatining chegarasida yuzaga kelgan Qoraqo‘yinli siyosatini amalga oshirsa, ikkinchi tomondan Usmoniylar davlatining ichki ishlariga oid ba’zi siyosatlarni amalga oshiradi. Bu aralashuvlardan biri Anqara jangida asir tushgan Mustafo Chalabiyni ozod qilishidir. Ikkinchisi Amir Temur dunyodan o‘tgandan keyin Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi dastlabki siyosiy munosabatni boshlab bergan, 1416-yil fevral oyida Shohruh Mirzoning Mehmed Chalabiyga elchi Burunduq Bahodir orqali yuborgan bir maktubi edi. Shohruh bu xatda Mehmet Chalabiyni Alloh yo‘lidagi mujohid, dunyoviy va diniy nizomni qo‘riqchisi unvonlar bilan atab, salom bergandan so‘ng shahzodalar Sulaymon, Muso va Isoning Usmoniylar to‘rasiga ko‘ra bo‘lib o‘tgan taxt kurashlarda bartaraf qilinganliklaridan xabardor bo‘lganligini, lekin aka-ukalar o‘rtasidagi bu holat Elxoniylar to‘rasiga to‘g‘ri kelmasligini bildirdi. Qisqa muddatli saltanat uchun inson aka-ukalarini o‘ldirmasligi kerakligini aytadi. Maktubni keyingi qismida Shohruh o‘zi haqida ham to‘xtalib, zolim Qora Yusuf va uning farzandlari bilan urush holatida ekanligi, ularga dars berib qo‘yish uchun tayyorgarlik ko‘rayotganligini bildirgan (Feridun Bey, 1583:150; Ahat Andican, 2019:559-560; Hayrunnisa Alan, 2007:260). Xatning bu qismiga qaraydigan bo‘lsak, Shohruh Usmoniylarni o‘zining dushmani Qoraqo‘yinlilarga ko‘mak berish yaxshilikka olib kelmasligini, Mehmet Chalabiy otasi Boyazid Yildirim qilgan xatoni takrorlamasligi uchun siyosatning yumshoq ko‘rinishi bilan ogohlantirib qo‘ymoqchi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin. Mehmed Chalabiy Shohruhga yozgan javob maktubida Usmoniylar davlati tashkil topgandan beri barcha masalalarni o‘zining tajribasiga suyanib hal qilganligini, saltanatni sheriklik bilan boshqarilmasligini bildirgan. Yana Onado‘lidagi bekliklar Misr bilan yaqin aloqa o‘rnatganliklari, g‘azo faoliyatlarini qo‘yib, sirtlonlar kabi ish qilayotganliklarini aytgan (Hayrunnisa Alan, 2007:260; Ahat Andican, 2019:560).

Usmonli sultoni Mehmed Chalabiy Shohruh bilan Qoraqo‘yinli Qora Yusuf o‘rtasidagi kurashlarni katta xavotir bilan kuzatib bordi. Qora Yusuf Usmoniylarga yuborgan maktubida Shohruh Onado‘lini istilo qilishini, so‘ng Bolqon tomonga o‘tib, qaytishda Dashti Qipchoq orqali Ozarbajonga kelish niyati borligini bayon qilgan (Ahat Andican, 2019:562). Bu orada Qora Yusuf mintaqadagi raqibi va Temuriylar vassali Oqqo‘yinli hukumdori Qorayuluq Usmonbekning Shohruhga yozgan maktubini qo‘lga oldi va uni Usmoniylar sultoniga yubordi. Bu maktubda Oqqo‘yinli Usmonbek Qora Yusufni o‘ziga oid erlarni tortib olganligini, bu masalani faqat Shohruh echa olishligi va Vizantiya imperatori ham birgalikda Onado‘lidagi barcha bekliklar Temuriylar hukumdorini kutayotganligi aytilgan (Feridun Bey, 1583:153; Ahat Andican, 2019:562-563). Bundan Qora Yusuf Usmonli hukumdorini Shohruh Mirzoga qarshi kurashga ittifoqchi bo‘lishga undayotganligi ko‘rinib turibdi. Lekin Mehmed Chalabiy bu vaziyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutib, Qora Yusufni Shohruh Mirzoga itoat qilishga undab, shunday deydi: “Xoqon hazratlari (Shohruh) seni tobeligingni qabul qilishlari uchun qo‘lingdan kelganini qilishing kerak. Hamma qilishing kerak bo‘lgan ish xoqonga itoat qilishing” (Ahat Andican, 2019:563) deb uni murosaga davat qiladi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, Usmoniylar hukumdori Temuriylar bilan yana yuzma-yuz kelishlikdan cho‘chib, Shohruhning yana bir marta Onado‘li safariga chiqishiga sabab qoldirmaslikni niyat qilgan ko‘rinadi. Chunki Anqara jangining sabablaridan biri ham ana o‘sha Qora Yusuf turkmaniy edi.

Shohruh 1420-yil kuz oyida Ozarbajon tomon yo‘l oldi. Bu yurish vaqtida Shohruh Mirzo1420-yil 17-noyabr kuni Ray shahriga kelgan vaqtda Qora Yusufni vafot etganligi xabari etib keldi (Abdurazzoq Samarqandiy 2-jild 1-bo‘lim, 2008:366). Qora Yusuf o‘lgandan so‘ng uning qo‘l ostidagilar har yoqqa tarqalib ketdilar. Shundan so‘ng Temuriylar hukumdori Qora Yusuf o‘zboshimchalik bilan egallab olgan erlarni Temuriylar saltanati tarkibiga qaytaradi. Faqat, 1421-yil avgust Olashgirt mavzesida Qora Yusufni o‘g‘illari bilan Temuriylar qo‘shini o‘rtasida bo‘lgan ulkan to‘qnashuvda Shohruh Mirzo g‘alaba qozondi. Turkmanlarning ko‘pi asir olindi. Ularning sardori Iskandar qochib ketdi. Shohruh shundan so‘ng har tarafga fathnomalar yubordi (Abdurazzoq Samarqandiy 2-jild 1-bo‘lim, 2008:411). Shohruh Qorabog‘da bo‘lgan vaqtida Mehmet Chalabiyga yana bir xat yuboradi. Unda Ozarbajon safari va Qoraqo‘yinlilar bilan bo‘lgan janglar haqida xabar berib, Qora Yusufni o‘g‘illari Ganja tomonga qochganligi, agar ular Usmoniylar erlariga o‘tadigan bo‘lsa qo‘lga olib o‘zining huzuriga yuborishligini so‘ragan (Ahat Andican, 2019:564). Javob xatida Mehmed elchi Bahrom Chovushni kelganligi, Ozarbajonni egallanganligi va u mintaqaning vaziyati haqida xabar berganligini bildirgan. Qoraqo‘yinli raisi

Iskandar Onado‘liga kiradigan bo‘lsa unga qarshi harakat qilinishini bildirgan. Bundan tashqari Mehmed Shohruhga tamoman tobeligini va ulug‘ xoqon xizmatida ekanligini bildirgan (Hayrunnisa Alan, 2007:261; Ahat Andican, 2019:564). Mehmet Chalabiy 1421-yil vafot etadi. Uning o‘rnini o‘g‘li sulton Murod II egallaydi. Bu davrda Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi munosabatlarining asosiy masalasi Qoraqo‘yinlilar va Shohruhning Ozarbajon safari bo‘ladi. Shohruh Salmas jangida Qoraqo‘yinlilarni engib Onado‘li va Suriya yo‘lini ochadi. Bu holat Usmoniylar va Mamluklarni xavotirga solgan. Shohruh uchinchi Ozarbajon safarida Qoraqo‘yinli Iskandarni tor-mor qiladi. Iskandar qochib, Erzurim yo‘li bilan g‘arbga qochadi. Bu qochish paytida yo‘lini to‘smoqchi bo‘lgan Oqqoyunlilar bilan urushda katta jasorat ko‘rsatdi. Ularning soni Oqqo‘yunlilardan kam bo‘lishiga qaramasdan, g‘alaba qozonishlari urushdan keyingi manzarani ko‘rgan Temuriylar qo‘shinlarini sekinlashtirishda samarali bo‘ldi. Iskandarni taqib etayotgan qo‘shinlar boshlig‘i Mirzo Chuki Onado‘liga kirmay, qaytib ketadi. Mirzo Chuki, Iskandar bilan bo‘lgan jangda olgan jarohati tufayli vafot etgan Oqqoyunli Qara Yuluk Usmonning qiziga uylangan edi. Shohruh Usmonli sultoni Murod II ga Shayx Nuriddin Muhammadni elchi yuboradi. Usmonli sultonidan Iskandarni himoya qilmaslik, agar uni qo‘lga tushursa o‘zining huzuriga yuborishlikni so‘raydi (Abdurazzoq Samarqandiy 2-jild 2-bo‘lim, 2008:60; Hondamir, 2013: 435). Shohruhning iltimosiga qaramay, Qoraqo‘yunli Iskandar Onado‘lining Oqshahar mintaqasiga kelganda Usmonli hukumdori unga bir nechta tuyada egulik jo‘natadi. So‘ng Iskandar Usmonli sultoniga ham nonko‘rlik qilib o‘sha erdagi qabilalarni talashni boshlaydi (Ca’feri b. Muhammed el-Hüseynî, 2011:111). Yorg‘uch posho vaziyatni sultonga etkazadi. Sulton Umarbeyni o‘sha mintaqaga yuborib sulton Shohruh Xurosonga ketganligini xabarini berib, ularni ham o‘z yurtlariga qaytishlarini so‘radi. Iskandar va yonidagilar hech qanday e’tiroz bildirmasdan qaytib ketdilar (Hayrunnisa Alan, 2007:261).

Shohruh 1435-yilda Oqqo‘yinlilar, Dulqodirlilar Qaramano‘g‘illari va Usmoniylarga tobelik hil’atlarini yuborib, uni kiyishlarini xohladi. Bu hil’atni kiyishlari Shohruh hokimiyatini tan olib unga itoat bildirishlarini anglatardi. Sulton Murod II ham majlisda bu hil’atni kiyadi (Ibn Dovud es-Seyrefi 3-jild, 1970:330). Sulton Murod davrida Temuriylar va Usmoniylar munosabatlarda yana bir siyosiy mavzu Qaramano‘g‘illari masalasida bo‘ldi. Usmoniylarning Onado‘lida siyosiy siyosiy birlikni ta’minlashga keng katta qarshilikni Qaramano‘g‘illari ko‘rsatdi. Hatto vaqti-vaqti bilan Usmoniylarga qarshi g‘arbning xristian davlatlari bilan ham bu yo‘lda ittifoq tuzadi. Usmoniylar Bolqon davlatlari bilan mashg‘ul bo‘lib turgan vaqtida Qaramano‘g‘li Ibrohimbey Anqara va Kutahiya chegarasigacha Usmoniylar erlarini talon taroj qiladi. Oqshahar va Beyshaharni ishg‘ol qiladi. U haq bo‘lgan shunday vaziyatda ham Qaramano‘g‘illari ustiga yurish qilish Temuriylarning Onado‘liga bostirib kirishlari uchun bahona bo‘lishligini bilar edi. Chunki, Qaramano‘g‘illari Temuriylar himoyasi ostidagi beylik edi. Usmoniylar musulmon davlatga qarshi xristian davlatlari bilan birlashganlarga jang qilishning gunohi yo‘qligi xususida Misrdagi to‘rt mazhab imomlaridan fatvo ham olgan (Gürol Pehlivan, 2008:603). Bu fatvoni mashhur tarixchi va muhaddis shofe’ mazhabi imomi Ibn Hajar Asqaloniy, hanafiy mazhabi olimi Sa’duddin Dayri va Abdussalom Bag‘dodiy, molikiy va hanbaliy mazhabi olimlari Badriddin Tanisiy va Badriddin Bag‘dodiylar berganlar (Hakki Uzunçarşili, 1937:118). Qaramano‘g‘illarining bunday harakatlarini 1429-yilda sulton Murod tarafidan bir maktub bilan Shohruhga bildirildi. Shohruh esa Qaramano‘g‘illari va Qora Yuluq Usmon o‘g‘illarining unga itoat qilishda kamchilikka yo‘l qo‘ymaganligini bildirib, Misr ularga qarshi bu qilgan ishlari uchun qasos olish maqsadida ekanligini, agar ularning shaharlari va qishloqlari xarob qilinadigan bo‘lsa buning albatta javobi bo‘lishini bildiradi (Feridun Bey, 1583:193; Hayrunnisa Alan, 2007:262). Tomonlar o‘rtasida bu mavzulardan tashqari ham yozishmalar bo‘lgan. Elchilarning borib kelishi, do‘stlik va sadoqatni xohlagan Shohruhning maktubi bilan sulton Murodning Onado‘lidagi faoliyatlaridan va tobeligining nishoni sifatida elchi Iso al-Abbosiyni yuborganligi to‘g‘risidagi maktublar Faridunbeyning Mushaotida joy olgan. Sulton Murod elchisi bilan birgalikda qirqta mukammal qurollangan g‘ulom va o‘nta g‘ayri musulmon qullarni Hirotga yuborgan. Ular Hirotga olib borilib Shohruhga taqdim qilingan. Shohruh bu elchilik hay’atiga Abdulholiq Bahshini elchi o‘laroq yuborib javob bergan (Hayrunnisa Alan, 2007:262).

Sulton Murodga Misr sultoni Barsbaydan ham 1436-yil 23-yanvar kuni bir maktub keladi, unda Misr sultoni Shohruhga qarshi jangga tayyorgarlik ko‘rayotganligini aytib, u bilan ittifoqdosh bo‘lish niyati borligini aytadi (Ibn Dovud es-Seyrefi 3-jild, 1970:344).

Shohruhning uzoq yillik saltanati davrida Usmoniylar saltanatida bir o‘zgarish sodir bo‘ldi. Sulton Murod taxtni o‘g‘li sulton Mehmedga topshiradi. Sulton Mehmed Fotih davridan Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasidagi aloqalar uzoq ikki do‘st o‘lka orasidagi munosabatlar shakliga o‘tdi. Shubhasiz bunda Shohruhning vafotidan keyin sodir bo‘lgan saltanat uchun kurash, Abu Saidning vafoti bilan Ozarbajon va Iroq Temuriylarning nazoratidan tamoman chiqishi bilan bu ikki davlat orasidagi chegaraning yo‘q bo‘lishi katta tasirga ega bo‘ldi. Shunga qaramasdan Mehmed Fotih Uzun Hasanni mag‘lub qilgandan so‘ng bir

maktub bilan holatni Husayn Bayqaroga bildiradi. Munshaotlarda Husayn Bayqaro va Usmonli hukumdori Boyazid II o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini bildirgan ba’zi xabarlashuvlarni ko‘ramiz.

Bu ikki davlat o‘rtasida siyosiy munosabatlardan tashqari ilmiy va madaniy aloqalar ham keng shaklda davom etgan. Ayniqsa Usmoniylar davlatining tashkil topishi yillarida Onado‘lida etishib chiqqan olimlarning ko‘pi o‘zlarini ilmiy salohiyatlarini oshirish uchun sharqdagi islom markazlariga borganliklarini bilamiz. Bu shaklda Qozizoda Rumiy, Oloviddin Ali Fanoriy, Abdulvosi ibn Hayruddin Hizir, Abdulloh-i Ilohi, Piri Mehmed, Ilos-i Rumiy va Muhiyuddin Mehmed kabi ko‘p shaxsiyatlar o‘zini rivojlantirish uchun Temuriylar boshqaruvidagi mintaqalarga borganliklari ma’lum. Ayni shu narsa Markaziy Osiyoda siyosiy bo‘hronlar vaqtida, u erdan Onado‘liga bir qancha olim va mutasavvifni kelganligini bilamiz. Ali Qushchi, Sayyid Ali Ajamiy, Fathulloh Shirvoniy, Oloviddin Ali Samarqandiy, Hirotli Haydar, Oloviddin Ali Musanifak, Oloviddin Ali Tusiy, Sirojiddin Mehmed ibn Umar Halabiy va boshqa bir qancha olimlar Usmoniylar erlariga ko‘chib o‘tishgan. Bu holatni taraflar o‘rtasidagi munosabatlarning bir boshqa tarafi sifatida qabul qilish mumkin (Hayrunnisa Alan, 2007:263).

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Temuriylar va Usmonli davlati o‘rtasidagi munosabatlarni to‘liq ochib berishda Temuriy va Usmonli saroyida yozilgan manbalar etarli bo‘lmay, bunda arab manbalarining ham o‘rni beqiyosdir.

Amir Temur va Boyazid Yildirim o‘rtasidagi munosabatlar asosan siyosiy xarakterga ega bo‘lib, ularning manfaatlari bir necha nuqtada to‘qnashgan. Ushbu to‘qnashuvga sabab bo‘lgan omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: asosiy omillar va yordamchi omillar.

Asosiy omillarning birinchisi, bu ikki hukumdor davlatining chegaralari bir-biri bilan bog‘landi. Bunday vaziyatda o‘rta asrlarda urushdan qochish imkonsiz edi.

Asosiy omillardan biri yana biri, balki eng asosiysi – ikki hukmdor hokimiyatni anglash masalasidir: Amir Temur o‘zini dunyo hukumdori deb bilar edi va Boyazid Yildirim ham unga bo‘ysunishi lozim deb bilgan bo‘lsa, Boyazid esa mustaqil “Rum sultoni” sifatida yangi siyosiy birlik yaratishga intilib, bu unvonni Abbosiy xalifasidan tasdiqlatishga harakat qilgan. Shu tariqa o‘zini jahongir va islom mamlakatlarini fasodchilardan tozalovchi shaxs bilgan Amir Temur bilan o‘zini Onado‘lida islom bayrog‘ini ko‘taruvchisi va Saljuqiylarning merosxo‘ri sifatida ko‘rgan Boyazid Yildirim to‘qnash keldilar. Qisqa qilib aytganda Amir Temur uchun Sulton Boyazid bilan yuzma-yuz kelishdan boshqa yo‘l qolmagan edi.

Amir Temur vafotidan so‘ng ham bu ikki sulola o‘rtasidagi munosabatlar qizg‘in davom etdi. Bunda Shohruh Mirzo hukumronligi davrida Usmoniylar Temuriylarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lib, o‘z tobeliklarini bildirib turdilar. Shohruh Mirzo vafotidan so‘ng esa bu ikki sulola o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro teng va do‘stona ruhda kechdi.

Temuriylar va Usmoniylar o‘rtasida siyosiy munosabatlardan tashqari madaniy va ilmiy munosabatlar ham qizg‘in ruhda kechgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR

1. Абдураззоқ Самарқандий. (2008). Матлаи Саъдайн ва Мажмуаи Баҳрайн. – 2-жилд 1- бўлим. Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 632.
2. 2. Абдураззоқ Самарқандий.(2008). Матлаи Саъдайн ва Мажмуаи Баҳрайн. 2-жилд 2- бўлим. Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 849.
3. علي بن داود الصيرفي. نزهة النفوس و الأبدان في تواريخ الزمان. الجزء الثالث. القاهرة. ١٩٧٠. ص. ٥٧٦
4. Aşık Paşazade. (2003). Osmanoğulları›nin Tarihi. – İstanbul: K Kitaplığı, 2003, S. 615.
5. Ahat Andijan. (2019). Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. – İstanbul: Selenge, 2019. –S. 927.
6. Aziz ibn Erdeshir Esterabadi. (1990). Bezm u Rezm. –Ankara: Kultur bakanligi, 1990. – S. 506.
7. Азамат Зиё. (2001). Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2001. Б. 367.
8. Ebu Bekr-i Tihrani. (2011). Kitab-i Diyarbekriyye. – Ankara: Turk Tarih Kurumu, 2011. S. 418.
9. Hayrunnisa Alan. (2007). Bozkirdan Cennet Bahchasine Timurlular 1360-1505. –İstanbul: Otuken, 2007. – S. 329.
10. Ҳондамир. (2013). Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар. – Тошкент:Ўзбекистон, 2013. – Б. 1271.
11. Hakki Uzunçarşili. (1937). Karamanoğulları Devri Vesikalarindan İbrahim Beyin Karaman İmareti Vakfiyesi//Belleten 1. 1937. S. 56-127.
12. إبن حجر العسقلاني. إنباء الغمر بأنباء العمر. الجزء الأول. القاهرة. ١٩٩٤. ص. ٥٨٥
13. إبن تغرى بردى. النجوم الزاهرة في ملوك مصر و القاهرة. الجزء الثاني عشر. القاهرة. ١٩٧١. ص. ٤٥٧
14. إبن الشحنة. روض المناظر في علم الأوائل و الأواخر. بيروت. ١٩٩٧. ص. ٣٤٤
15. Ibn Arabshoh. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. – Toshkent: Fan, 2019. – B. 513.
16. İsmail Aka. (2022). Mirza Shahruh: Timur’un hukumdar o‘g‘lu Uluğ Bey’in Babası (1405-1447). – İstanbul: Kronik, 2022. – S. 305.
17. Nizomiddin Shomiy. (1996). Zafarnoma –Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B.528.
18. تقي الدين المقريزي. السلوك لمعرفة دول الملوك. الجزء الخامس. بيروت. ١٩٩٧. ص. ٤٦٤

19. Yashar Yujel. (1970). Kadı Burhaneddin Ahmed Ve Devleti. – Ankara: Ankara universitesi basımevi, 1970. S. 223.
20. Cuneyt Kanat. (2022). Memluk Timurlu münasebetleri. – Ankara: Turk tarih kurumu, 2022. – S.
21. Ca'feri b. Muhammed el-Hüseynî. (2011). Tarih-i Kebîr. – Ankara: Turk tarih kurumu, 2011 S. 314.
22. Sherefüddin Ali Yezdi. (2013). Zafernâme. – İstanbul: Selenge, 2013. – S. 512.
23. Feridun Bey. (1583). Münşeatü's-selatin I. – İstanbul: S. 576.
24. Gürol Pehlivan. (2008). Varna Savaşi Ve Bir Tarih Kaynaği Olarak Gazâvatnâmeler//January 2008 Journal of Turkish Studies Volume 3 Issue 4(3):598-617

REFERANS

1. Abdurazzoq Samarqandiy. (2008). Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. – 2-jild 1- bo'lim. Toshkent: O'zbekiston, 2008. B. 632.
2. Abdurazzoq Samarqandiy.(2008). Matlai Sa'dayn va Majmuai Bahrayn. 2-jild 2- bo'lim. Toshkent: O'zbekiston, 2008. B. 849.
3. Ali Ibn Dovud as-Sirofiy. (1970). Nuzhatun nufus va al-abdan fi tavarixi az-zaman. – Qohira: Matbaatu darul kutub, 1970. 3-jild. B. 576.
4. Aşık Paşazade. (2003). Osmanoğulları›nin Tarihi. İstanbul: K Kitaplığı, 2003, S. 615.
5. Ahat Andijan. (2019). Emir Timur: Tarih, Siyaset, Miras. İstanbul: Selenge, 2019. S. 927.
6. Aziz ibn Erdeshir Esterabadi. (1990). Bezm u Rezm. –Ankara: Kultur bakanligi, 1990. S. 506.
7. Azamat Ziyo. (2001). O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001. B. 367.
8. Ebu Bekr-i Tihrani. (2011). Kitab-i Diyarbekriyye. – Ankara: Turk Tarih Kurumu, 2011. S. 418.
9. Hayrunnisa Alan. (2007). Bozkirdan Cennet Bahchasine Timurlular 1360-1505. –İstanbul: Otuken, 2007. S. 329.
10. Hondamir. (2013). Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar. Toshkent : O'zbekiston, 2013. B. 1271.
11. Hakki Uzunçarşili. (1937). Karamanoğulları Devri Vesikalarindan İbrahim Beyin Karaman İmareti Vakfiyesi // Belleten 1. 1937. S. 56 –127.
12. Ibn Hajar Asqaloniy. (1994). Inbaul gumur bi anbail umur. Qohira: 1994. 1-jild. B. 585. 16.
13. Ibn Tag'riberdi. (1971). An-nujum az-zohira fi muluki Misr va al-Qohira. – Qohira: Darul kutub Misriyya, 1971. 12-jild. B. 457. 18.
14. Ibn Shihna. (1994). Rovzul manozir fi ilmi availi va avaxiri. – Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1994. B. 344.
15. Ibn Arabshoh. (2019). Ajoib al-maqdur fi tarixi Taymur. Toshkent: Fan, 2019. B. 513.
16. İsmail Aka. (2022). Mirza Shahruh: Timur'un hukumdar o'g'lu Uluğ Bey'in Babası (1405-1447). İstanbul : Kronik, 2022. S. 305.
17. Nizomiddin Shomiy. (1996). Zafarnoma –Toshkent: O'zbekiston, 1996. B.528.
18. Taqiyuddin Maqriziy. (1997). As-suluk lima'rifati duval al-Muluk. Bayrut: Darul kutub ilmiyya, 1997. 5-jild. B.464.
19. Yashar Yujel. (1970). Kadı Burhaneddin Ahmed Ve Devleti. Ankara: Ankara universitesi basımevi, 1970. S. 223.
20. Cuneyt Kanat. (2022). Memluk Timurlu münasebetleri. Ankara: Turk tarih kurumu, 2022.
21. Ca'feri b. Muhammed el-Hüseynî. (2011). Tarih-i Kebîr. Ankara: Turk tarih kurumu, 2011. S. 314.
22. Sherefüddin Ali Yezdi. (2013). Zafernâme. İstanbul: Selenge, 2013. S. 512.
23. Feridun Bey. (1583). Münşeatü's-selatin I. –İstanbu. S. 576.
24. Gürol Pehlivan. (2008). Varna Savaşi Ve Bir Tarih Kaynaği Olarak Gazâvatnâmeler // January 2008 Journal of Turkish Studies Volume 3 Issue 4(3) : 598-617